

## FARG'ONA VODIYSI OMMAVIY BAYRAM TOMOSHALARI SSENOGRAFIYASIDAGI O'ZIGA XOSLIGI VA FARQI



**Xojiakbar Oxundedaev**

Doktorant

Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn  
instituti

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-02-05>

**Annotatsiya:** Farg'ona vodiysi teatrlashgan ommaviy bayramlar ssenografiya san'ati jarayonining o'ziga xosligi, tomosha saxnasining badiiy jarayonlari, yurtimizdagi ommaviy festival bayramlarning bir biriga bog'liqligi va o'ziga xosligi ilmiy va tahliliy nazariyasi haqida tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Farg'ona vodiysi, ommaviy bayram, teatrlashgan maydon tomoshalari, Navruz, Mustaqillik, Atlas, Milliy xunarmandchilik va Gullar bayrami ssenografiyasi va badiiy bezaklar, sahnalarning o'ziga xosligi va ssenografiyasining farqi.

**Аннотация:** В статье анализируются особенности процесса сценографии массовых праздников в Ферганской долине, художественные процессы на сцене зрелищ, взаимосвязь и уникальность массовых фестивальных праздников в нашей стране, а также теоретический и аналитический подход к этим вопросам.

**Ключевые слова:** Ферганская долина, массовые праздники, театрализованные массовые представления, Navruz, День независимости, Atlas, Праздник национального ремесла и Праздник цветов, сценография и художественные украшения, особенности сцен и различия в сценографии.

**Abstract:** The article analyzes the uniqueness of the process of scenography in mass celebrations in the Fergana Valley, the artistic processes of stage performances, the interrelation and distinctiveness of mass festival holidays in our country, as well as the theoretical and analytical approach to these topics.

**Keywords:** Fergana Valley, mass celebrations, theatricalized public performances, Navruz, Independence Day, Atlas, National Handicraft Festival, and Flower Festival scenography and artistic decorations, the uniqueness of the stages, and the differences in scenography.

Madaniy hodisa sifatida bayram turli xil vazifalarni bajaradi: g'oyaviy, tarbiyaviy, ijtimoiy integrativ, targ'ibot, tarbiyaviy, ko'ngilochar va hokazo. Bayram tadbirlari ijtimoiy jihatdan bo'lingan jamiyatimiz uchun jamoamizni boshqa odamlar bilan birlashtirish va his qilish imkoniyatini beradi. M. A. Kulyashovanning fikricha, bayram yordamida insoniyat qadriyatlarini saqlaydi, qo'llab-quvvatlaydi, an'analardan foydalanadi va qayta tiklaydi<sup>1</sup>. Farg'ona vodiysi ommaviy bayram-tomoshalar ssenografiyasi uzoq davrlik tarixga ega. Uni o'rganish va tahlil qilish, o'ziga xos jihatlarini aniqlashtirish dolzarb va murakkab jarayon. Umuman olganda, "Farg'ona Movaraunnahr hududidagi etnik-madaniy aloqalar markazlaridan biriga aylandi. Bu yerda zamonaviy O'zbekistonning qolgan hududiga qaraganda ko'proq o'zbek xalqi madaniyati, o'zbek xalqi elementlarining kirib borishi bilan boyidi. Bugunga kunda ommaviy bayramlarga kiruvchi san'at turlari xaqida ilmiy izlanishlar olib borilgan ammo rassom funksiyasi ya'ni ssenografiyasiga aniq bir ilmiy izlanishlar olib borilmagan, shuning uchun ham maqolaning mazmuni ommaviy bayram tomoshalari ssenografiyasiga e'tibor qaratdik.

Ssenografiya o'zi nima? Voqelik asosida qurilgan spektakl yoki tomoshaning fazoviy va tasviriy yechimi. Bugungi kunda ssenografiya tushunchasi keng qamrovliligi bilan ajralib turadi. Ssenografiya teatr va tasviriy san'at bilan chan-barchas bog'liq san'at turi. Funksiyasi sahna yoki

joy, libos, butafor rekvizitlarni ssenogaraf rassom tomonidan dastur yoki pyesaga asoslangan holda yaratadigan eskiz va maket yordamida qurilgan sahnaning tasviriy manzarasini yaratish, bu san'at turida turli tasviriy san'at o'qimlardan va yo'nalishlardan foydalaniladi. Shuhrat Abdumalikovning fikriga qo'shilishimiz mumkin: „Ma'lum obyektga bir tekislikni sahna makoniga aylantirish, unda kompozitsion shakl yordamida mavzu va g'oyani ifodalash, jonsiz va man'oga ega bo'lmagan tekislikka mohiyatli fikr kirgizish, turli ishlab chiqilgan loyihalar asosida kompozitsion badiiy yechim keltirib chiqishdir“.

Ma'lumki, ommaviy tomoshalar ssenografiyasi har qanday bayramning mazmun-mohiyatini ochib beradi. Ssenografiya turli san'at turlarini o'zaro uyg'unligini ta'minlab, har qanday katta ommaviy tomoshalarda holatni bir butun asar ko'rinishiga kelishiga sabab bo'ladigan jihatdir. Bugungi kunda har qanday bayram-tantanalarda ssenografiyasini kuzatishimiz, tahlil qilishimiz, uning yutuq va kamchiliklarini o'rganishimiz mumkin. Ommaviy bayramlar, tomoshalar ssenografiyasi o'zining murakkab jihatlari, mukammaligi bilan boshqa sohalardan ajralib turadi. O'zbekistonda va Farg'ona vodiysida ssenografiya turli davrlarda turlicha rivojlangan. Bunga bir qancha sabablar mavjud. Bayramshunos, teatrshunos olimlarning ta'kidlashicha, ommaviy bayramlar tarixi uzoq davrga borib taqaladi. Biroq ommaviy tomoshalar sahna bezagi, ssenariysi va ssenografiyasi to'liq tatbiq etilmagan. O'zining madaniyati, san'ati, urf-odati va bayramlari bilan ajralib turadigan Farg'ona vodiysida ham ommaviy bayramlar ssenografiyasi shu davrgacha jiddiy tatbiq etilmagan. Ayniqsa, yaqin tarixda tashkil etilgan bayramlar, ommaviy tomoshalar haqidagi ma'lumotlar yetarlicha saqlanmagan. Albatta xalq orasida nishonlangan bayramlar ommaviy tomoshalarga aylanib ketgan. Umuman marosimlar, ommaviy tomoshalar, bayramlar tarixiga nazar solsak ularda biror diniy qarash va e'tiqodlar katta o'rin turganini kuzatishimiz mumkin. Bugungi davrgacha Farg'ona vodiysi va unda ilk nishonlangan ommaviy tomosha hamda bayramlar haqidagi ishonchli manba yoki qo'lyozmalar deyarli yetib kelmagan. Umuman bayram, sayil, ommaviy tomoshalar haqida yozgan tarixchilar ham sanoqli. Fikirimizcha, har qanday katta yoki kichik tomoshani ham tashkil etish alohida tayyorgarlik talab etadi. Bayramlar jamiyatdagi nufuziga ko'ra asta-sekin tomosha shakliga keltiriladi. Bayram tomoshalari zamon talablaridan kelib chiqib, milliylik, urf-odat, an'analarga sodiq qolgan holda tashkil etiladi. Fikirimizcha, bugungi Farg'ona vodiysidagi teatrlashgan ommaviy bayramlarning ssenografiyasini o'ziga xosligini bilishimiz uchun Respublikamiz viloyatlari hududlardagi urf-odatlarini va ommaviy teatrlashgan bayramlarning ssenografiyasini o'rganish darkor.

Samarqanddagi xalqaro bayram festivali 1997- yildan beri har ikki yilda nishonlanadigan ommaviy teatrlashgan bayram. Yana bir jihati shundaki, Musstaqilik davridagi birinchi xalqaro festival bayrami hisoblanadi. Bayram sahanasi Registon maydonida tashkil qilingan va shu sahnda o'tkazish an'anasiga aylangan. Bayram rejissyorlar Boxodir Yo'ldashev, Nabi Abdurahmanov va Rustam Shamsiddinov sahnalishturuvchi rassom Shuhrat Abdumalikovlar tomonidan bayram dasturida asosiy funksiyalarni bajarishgan. Bayramning ssenografiyasi markaziy nuqtasi maydondagi uchta tarixiy me'moriy obidalar Ulug'bek madrasasi, Sherdor madrasasi va Tillaqori madrasasi bu binolar ssenografiya vazifasini bajaruvchi asosiy bezak. Yana bir jixati shundaki bu ansanbil sahna dekoratsiyasining 70% qamrab olgan bu albatta rassom va rejissyorning funksiyasini yengillashtiradi. Sahnaning aylanasimonligi va palavikda milliy arlamentlardan yaratilgan kompozitsiya bu albatta sahna grafikasini yanada boyitishiga xizmat qiladi.

Buxoroda 2022-yildan bo'lib o'tgan Xalqaro zardo'zlik va zargarlik festival bayrami. Respublikamizda ilk marta o'tkazilgan bayramning ssenografiyasi haqida qisqacha tahlil qilsak. Bayram geografik hududi asosan, eski shahar hududiga to'g'ri keladi. Mir Arab madrasasidan to Ark majmuasigacha xalqaro va respublika hunarmadlari uchun zamonaviy palatka rastalar qad roslagan bundan maqsad mehmonlar uchun sayllar tashkil qilish maqsadida qilingan an'anaviy usul. Bayramning markaziy sahnasi Ark majmuasining oldi qismidagi maydonga tashkil qilindi, ssenograf rassom Akmal Jamolov asosan Sahnaning pol qismiga urg'u berganligi ssenografiyasining yangicha shaklini ko'rsatishga harakat qilgan. Ko'rinishi milliy naqsh aks

etgan zargarlik kompozitsiyani ko'rishimiz mumkin. Sahnaning umumiy rang qora rangda qilingan balandligi bir yarim metrdan iborat, bunda rejissyor va rassom sahnadagi harakatlanuvchi figuralar va liboslarning rangini tomoshabinga aniq qilib yetkazish bo'lgan maydonning orqa foniga uchta katta hajmdagi ekranlar bilan o'ralgan ularning orasidagi bo'shliqga baland milliy sharqona tillarang arkalar o'rnatilgan, maydoning o'ng va chap tomonida festival logotipi tasvirlangan aerostatlardan foydalanilgan. Fikirimizcha, bayram ssenografiyasida sahnaning umumiy ko'rinishi tarixiy yodigorlik bilan umumiy uyg'unlik hosil qilgan.

**Farg'ona viloyatining an'anaviy milliy bayramlari:**

Onalarga ehtirom festivali Marg'ilon may oyida-2021, ijodkorlar bog'i anfiteatrida.

Do'stlik festivali Farg'ona shahridagi Islom Karimov nomidagi viloyat teatr-konsert saroyida 2022 yil.

Buyuk ipak yo'li xalqaro folklor musiqa festivali Marg'ilon.

Xalqaro hunarmandchilik festivali Qo'qon.

Atlas bayrami Marg'ilon.

**Andijon viloyatidagi an'anaviy milliy bayramlar:**

Dunyo sadolar festivali 2023- yil Xonobod shaxri

Xonobod tarovati milliy an'anaviy bayram Xonobod shahri

**Namangan viloyat milliy an'anaviy bayramlar:**

Gullar festivali an'anaviy milliy bayram

Qadimiy sadolar aksi festivali milliy baram (2023) To'raqorg'on

Namangan navlari an'anaviy milliy bayram bayrami. Chxusok koreys milliy bayrami Namangan 2020-yil. Qolaversa, Respublika miqyosidagi bayram Navro'z umumxalq milliy bayrami va Mustaqillik umumxalq siyosiy bayramlar ommaviy tarzda nishonlanib kelinadi. Bu bayramlar bugungi kunda Farg'ona vodiysi aholisining asosiy an'ana shakliga aylangan milliy bayramlar turkimiga kiradi. Shu o'rinda yaqin o'tmishda vatanimizning ilk Mustqillik bayrami 1992-yil Toshkent Mustaqillik maydonida nishonlangan bo'lsa 1993-1994 yillarda viloyatlarda ham o'tkazilishi boshlandi. So'nggi yillardagi bayramlardan ba'zilarni misol qilib ko'rishimiz mumkin va ularning o'ziga hosligini ilmiy tahlil qilib ko'rsak, 2014-yilda Namangandagi kichikintoy bog'ining anfiteatrida o'tkazilgan tarixiy milliy bayram Navro'z bayrami, ssenografiyasining o'ziga xosligi shundaki bayramning geografik jihatida ya'ni, anfiteatr atrofi tabiiy dekorativ hududligi bilan ajralib turadi, misol uchun anfiteatrning orqa tomonida katta ko'l va hayvonat bog'i joylashganigi insonlar uchun estetik hordiq vazifasini bajarishi mumkin, qolaversa, bo'g'ning dekarativ landshaftida turli haykaltaroshlik, relyef shaklidagi me'moriy arxitektura va ko'l yoqalab suzib yuruvchi rang-barang o'rdaklar bayram o'tkazish uchun ma'qul yechimdir. Anfiteatrning umumiy tomoshabin sig'imi besh yarim ming kishilikligi turli bayramlar uchun sahna grafikasi uchun o'ziga xos fon atmosferasini funksiyasini bajarish imkoniyatlarini yaratadi. Bayramning markaziy sahnasining ssenografiyasi doira shaklidagi sahnada yashil rangli kavralar bilan qoplangan. Bundan maqsad sahnadagi ishtirokchi xareografiya jamolarning liboslarini aniq qilib tomoshabinga yetkazishini bildiradi. Orqa fon ikkita plandan iborat, birinchisi esa yog'och fanerdan yasalgan turli masshtabdagi va rangli tasviriy dekoratsiyalar laylaklar, lolalar ularning hajmi balandligi sahna masshtabiga xos uch metrdan to sakkiz metrgacha, enlari bir yarimdan ikki metrgacha tashkil qilgan, dekoratsiyalarning joylashtirilishi ritm qoidalar asosida o'rnatilgan, bu dekoratsiyalarning vazifasi tomosha ishtiroklari kirib chiqish uchun darvoza funksiyasini bajaradi. Sahna orqadagi birinchi etapdagi markaziy dekoratsiya milliy ustun tepasidagi laylaklar makoni tasvirlangan undagi laylak bir oyog'ini ko'tarib turganligini ko'rishimiz mumkin, fikirimizcha, uning o'ziga xos jihati shundaki, rassom ramziy ma'noda shunday fikr yuritgan, yani, yurt tinchligini yani laylak inida oilasi bilan hotirjam shuning uchun ham bemalol bir oyoqda turganini va hech qanday xavf-xatar yo'qligini ifodalagan go'yo. Ikkinchi etapdagi fonida tog'lar, keng adirlikdagi lolazorlar va bodom daraxtining gullagan holatini tasvirlanganligi ochiq osmon ostidagi fazoviy kopmazitsiya hosil qilgan, qolaversa, sahna maydondagi ramkalarda tabiiy gullardan milliy sakkiz qirralik ramziy yulduz shaklidagi ladshaft dizayni rang- barangligi, o'ziga xos joziba aks etirgan. Maydoning umumiy grafikasida bezatilgan

prilla, gul shaklidagi darvoza va nilufar gullar qolaversa, havo sharlar sahna maydonidagi yordamchi dekortsiya funksiyasini bajargan ya'ni maqsad dastur g'oyasiga mos ravishda keng maydonni to'ldirish. Yuqoridagi ilmiy tahlil nazariyasidan kelib chiqqan holda bu tantana marosimida o'ziga yarasha kamchiliklarni ham ko'rishimiz mumkin masalan, ssenograf nazariyasi bilan qaraganda, takrorlash ya'ni dekoratsiyalarning qaytadan sahnada ishtirok etishi bu dekoratsiyalar Respublika Navro'z tomosha bayramlarida ishtirok etganligi haqida O'zMTRK arxiv tasvirlarda ko'rishimiz mumkin. Viloyat uchun o'ziga xos yangilikdir, ammo nima bo'lganda ham san'atda va uning turlarida ko'chirmachilik, takrorlash bu san'atimizning va soha vakili, ijodkorlarning mavqeyiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Qolaversa, 2021-yilda Andijon viloyatidagi so'lim go'sha Xonabod qir-adirliklar va kengliklarida Navro'z umumxalq bayrami boshqa hududdagi Navro'z bayramlaridan farqlanishi va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bayram asosan milliy qadriyatlarga urg'u bergan holda sayl shaklida o'tkazilganligi. Uning ssenografiyasi oddiy xalq qo'l mahsuli orqali ifoda etgan ya'ni bu bayramda professional rassomlar va boshqa xalq tanigan ijodkorlar o'rin olmagan, asosan, mahalliy aholi tomonidan qilingan ijodiy mahsul desak bo'ladi, bayramning umumiy ssenografiyasi bu tabiiy geografik hudud. Hududlarga kesimidagi plashatkalar bir-birini takrorlanmasligi, undagi bezakli butavor va dekoratsiyalarning bahoriy atmosferani bergan va bu ishlarni qishloq ahli qo'l mehnati orqali bajarilganligi ham o'ziga xosligini bildiradi. Yana bir jihati shundaki, bayram tashkiliy maydonining kengligi bu marosim perspektivasining uyg'unlashib ketganligi va umumiy maydon grafikasi milliy an'anaviy shakldagi muhitni bera olgan bu go'yo yaqin o'tmishdagi umumxalq bayramlarga o'xshash manzara desak ham boladi. Ammo shu o'rinda kamchiliklarni ham aytish joiz deb bildim. Navro'z bayrami deganda avvalo, xalq biror joyga borib sayllarda ishtirok etishi va asosan, ommaviy teatrlashgan bayramlar deb tushunamiz, shuning uchun ham asosiy markaziy bayramlarda albatta bayramning kulminatsion nuqtasi bu bayramning markaziy sahna maydoni bo'lishi lozim va dramaturgiya, xareografiya, teatrlashgan aktyorlar jamoasi va asosiy ustuni bo'lmish rejissyori va ssenograf rassom elementar funksiyalari bo'lish lozim shundagina professional muhit yaratadi, bu albatta hududlarda madaniyat va san'at sohalarida raqobat paydo bo'ladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak Farg'ona vodiysida so'nggi 30 yillik davrda bayram, yubiley, festival kabi ommaviy tomoshalar ancha rivojlandi. Bu davr mobaynida respublikamizda yangi bayramlar, xalqaro festivallar, sport o'yinlari va boshqa ommaviy tomoshalar tashkil etildi. Ko'plab tadbirlar an'anaviy shaklga keltirildi. Farg'ona vodiysi shaharlaridagi birqancha ommaviy tomoshalar: Mustaqillik bayrami, Navro'z bayrami, xalqaro "Gullar festivali", "Atlas festivali" kabi tadbirlar allaqachon an'anaga aylanib ulgurgan. Bu kabi ommaviy tomoshalarni o'tkazish bo'yicha katta tajriba to'plandi, qaysidir ma'noda uslub yaratilgan. An'anaviy ommaviy tomoshalar ssenografiyasi o'z ssenariysiga ega, sahna dekoratsiyasi, ishtirokchilar liboslar va boshqa jihatlar allaqachon tizimli ravishda ishlab chiqilgan. Bu albatta ssenograf rassomlarning san'atdagi o'rnini yanada ifodalashga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Майны Ш, Чооду О.Традиционная праздничная культура: понятие и сущность.Слово соискателю ученой степени.- УДК 793.2,59-с; file:///C:/Users/user/Downloads/traditsionnaya-prazdnichnaya-kultura-ponyatie-i-suschnost.pdf.
2. Эльмира Польш. Диалог культур.-Т.: искусстве Узбекистана, 2005.-156-с.
3. Абдумаликов Ш. Театр безаги композицияси.-Т.:МРДИ, 2020- 9-б.